

## 121. Narx, miqdor, qiymat

**Yondosh mavzu:**  
iqtisodiyot.

Formula, narx,  
miqdor, qiymat.



1. Har bir xarid qancha turishini aniqlang.



Narxi 7000 soʻmdan  
8 kg kartoshka



Narxi 5000 soʻmdan  
4 bogʻ sabzi



Narxi 12 000 soʻmdan  
3 quti sut



Narxi 16 000 soʻmdan  
5 idish yog'



**Mahsulot narxi** – bu mahsulot birligi uchun toʻlanishi kerak boʻlgan pul miqdori.

**Qiymat** – bu butun xarid uchun toʻlanishi kerak boʻlgan pulning umumiy miqdori.

Narx tarkibli birliklar: soʻm/dona, soʻm/kg, soʻm/m bilan belgilanadi.

**Bitta vaza 18 000 soʻm turadi.**

**Vazaning narxi 18 000 soʻm/dona.**

**Bir metr gazlama 43 000 soʻm turadi.**

**Bir metr gazlamaning narxi 43 000 soʻm/m.**



2. Ifodalar yozing va ularning qiymatini hisoblang.

  - a) Bitta daftar 3500 soʻm turadi. 10ta shunday daftar uchun qancha toʼlash kerak?
  - b) 4 metr mato uchun 26 000 soʻm toʼlandi. 1 metr mato uchun qancha toʼlash kerak?
  - c) Bir quti shokolad 56 000 soʻm turadi. Shunday qutilarning bir nechta uchun 168 ming soʻm toʼlandi. Necha quti shokolad sotib olingan?
  - d) 3 quti choy uchun 51 000 soʻm toʼlandi. Shunday 2 quti choy uchun qancha toʼlash kerak?



- ### 3. Masalani sxema bo'yicha yeching.



4. Tushirib goldirilgan raqamlarni toping. Natijalarni tekshiring.

$$\begin{array}{r}
 & 4 & 5 & 7 & 8 & \\
 + & 9 & 6 & 5 & 4 & \\
 \hline
 & 2 & 0 & 3 & 5 & 3
 \end{array}
 \quad
 \begin{array}{r}
 - 9 & 8 & 7 & 6 \\
 - 4 & 7 & 8 & 5 & 0 \\
 \hline
 4 & 9 & 2 & 5 & 3
 \end{array}
 \quad
 \begin{array}{r}
 \times 1 & 7 & 0 & 0 \\
 \times 2 & & & 0 \\
 \hline
 0 & 4 & 0 & 0
 \end{array}$$



5. Misollarni yeching, yashiringan so‘zlarni toping va nima uchun qiymat C harfi bilan, narx esa p harfi bilan belgilanishini bilib oling.

$$25648 : 16 \cdot 53 - 4777 \cdot 12$$


**A** 70176      **C** 1603      **N** 15015      **S** 57324  
**B** 18414      **L** 83442      **O** 84959      **T** 27635

$$52 : 13 \cdot (450 - 23 \cdot 7) : 17$$

**A** 76      **E** 68      **N** 561      **P** 161  
**C** 1156      **I** 4      **O** 86      **R** 289

## 121. Narx, miqdor, qiymat

6. Aziza o'yinchoqlar narxini solishtirdi. Unga ushbu o'yinchoqlar narxini aniqlashga yordam bering. Tengsizliklar yordamida taqqoslang.



Aziza ikki dugonasiga bittadan qo'g'irchoq va ukasiga bitta koptok sovg'a qilmoqchi. U qancha pul to'plashi kerak?

7. 3ta qalam va 2ta o'chirg'ich birgalikda 5200 so'm turadi. 7ta qalam va 8ta o'chirg'ich esa birgalikda 16800 so'm turadi. Bitta qalam va bitta o'chirg'ichdan iborat to'plam qancha turadi? Bitta qalam qancha turadi?



8. Hisoblang.

$$4t\ 56kg + 2t\ 2q\ 15kg$$

$$7kg\ 129g - 3kg\ 897g$$

$$(9t\ 1q - 3t\ 15kg) : 5$$

$$(7kg\ 225g - 1337g) \cdot 3$$



9. Ifodalar tuzing va ularning qiymatini hisoblang.

- Bir quti pecheniyning narxi 8000 so'm. 23 quti pecheniy uchun qancha to'lash kerak?
- 18 quti sharbat uchun 135000 so'm to'landi. Bir quti sharbatning narxi qancha?
- Bir qadoq muzqaymoqning narxi 168000 so'm. Bir dona muzqaymoqning narxi 14000 so'm. Qadoqda nechta muzqaymoq bor?